



HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY YO‘LLARI VA SHAKLLARI

Saburov Alisher Ikramovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya: *This article analyzes mechanisms aimed at enhancing the ethical and psychological readiness of military personnel, focusing on methods to strengthen their moral grounding and resilience.*

Kalit So‘zlar: *Ethical readiness, psychological resilience, military personnel, moral development, stress management, ethical training.*

Kirish Harbiy xizmatning murakkabligi va xavf-xatarli sharoitlari harbiy xizmatchilardan yuqori axloqiy va ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tug‘iladi. Ushbu tezisda harbiy xizmatchilarni professional va shaxsiy sifatlari bo‘yicha tayyorlashga qaratilgan amaliy yo‘llari va shakllari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy asosan, harbiy sohada rivojlanishi yetuk ofitser shakllantirish bilan ro‘yobga chiqariladi. Barkamol, yetuk ofitser o‘qimishli, yangicha fikrlaydigan, madaniyatli, axloqli, mehnatsevar, jismonan va ruhan sog‘lom, o‘z haq-huquqini bilgan, vatanini sevadigan, faol, fidoiylilik va ma’naviy boy singari insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirmog‘i lozim.

Harbiy an‘analarning o‘rni va ahamiyatini anglash uchun eng avvalo an‘analarning mohiyati, mazmuni haqida fikr yuritaylik. Harbiy jamoada yashovchi harbiy xizmatchi o‘z bo‘linmasining milliy harbiy an‘analari tarixini,



turmush tarzini, madaniyatini, ruhiyatini va ma'naviyatini chuqur bilgandagina, u shu xalqning barkamol, etuk ofitseri bo'la oladi. Barkamol yetuk ofitser o'z navbatida o'zining xizmat faoliyati davomida o'rgangan g'oya va tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatishga harakat qiladi. Ana shu o'rgatish harbiy va ijtimoiyhayotni davom ettirishga asos, negiz bo'ladi.

Shuning uchun o'z qadr-qimmatini bilgan harbiylar o'z harbiy san'atining, ma'naviyatining ya'ni harbiy vatanparvarligining, qadriyatlarining asosi bo'lgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarni avloddan avlodga etkazadi, asraydi hamda ularni davom ettiradi. Ana shundagina harbiylarning, xalqning, davlatning, hayotning davomiyligi ta'minlanadi. Bu haqda buyuk sharq mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy "Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o'rnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagagina ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir harbiy xizmatchi o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi harbiy xizmatchiga etkazib beradi",-deb o'rinli ta'kidlagan.

O'zbek harbiylari o'z harbiy an'analari bilan jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan eng qadimgi xalqlardan biri sifatida mana shunday bebaho, boy xazinaga ega. Buning uchun o'zbek xalqining harbiy an'alarini bilishimiz, boyitishimiz, takomillashtirishimiz, saqlashimiz hamda keyingi avlodlarga etkazish har birimizning, muqaddas vazifamiz bo'lmog'i darkor. Eng asosiysi harbiy an'alaridan yosh ofitserlarni tarbiyalashda foydalanishni hozirgi talabning o'zi talab qilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi"-deb alohida ta'kidlangan.

An'ana-bu jamiyatda ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida barcha sohalarni qamrab olgan, o'z o'rnini topgan, ajdodlardan-avlodga o'tib



turadigan, takrorlanadigan harbiy hayotda qo'llanadigan umumiy tartib, qoidalar va tajribalar yig'indisi deb ta'riflash mumkin.

Harbiy an'analar esa harbiy, ijtimoiy hodisa bo'lib, harbiylar hayotining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan ya'ni turmush tarzi, mehnat, odob-ahloq, madaniyat, ma'naviyatlarida o'z o'rnini olgan, avloddan avlodga o'tib turadigan, takrorlanadigan, qo'llanadigan harbiy tartib-qoidalar yig'indisi deb tushunish zarur. Harbiy an'analarning hayotda tadbiq qilinish hajmi, ko'lami, doirasi ijtimoiy an'analarga qaraganda nisbatan torroq yo'nalishga ega. Shu nuqtai nazardan yondoshganda harbiy an'analar davlat miqiyosidagi harbiy ta'lim-tarbiya muassasalari, mehnat jamoalari an'alaridan shakli, mohiyati, mazmuni hamda o'ziga xos harbiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek harbiy xizmatchilarining harbiy an'analari o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega. An'analar harbiy jamoaning turmush tarzini bezab, ifodalab uning qadr-qimmatini yuksaltiradi. Har bir harbiy an'ana o'z shakli, mazmuni, maqsadi va vazifalarni nazarda tutadi. Harbiy an'analar o'z milliy mazmuni, shakli, mohiyati hamda xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Yosh ofitserlarning muntazam tizimli uzluksiz, shakllanishida to'g'ridan to'g'ri kuchli tarbiyaviy ta'sir etuvchi milliytarbiya vositasidir. Harbiy an'analar harbiylarning boy axloq-odobi, madaniyati, ma'naviyati ijtimoiy, harbiy tajribalari bilan uzaro uzviy bog'langan va ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy an'analari, ayniqsa aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, huquq, ekologik yo'nalishlar orqali tarbiyalash asosli ildizlarga ega. Masalan, kattalarga hurmat va kichiklarga mehribon bo'lish; salomlashish va ko'rishish; bemorlardan hol-ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganida yordam berish; birinchi maosh olish; birinchi kor; mehmondo'stlik va h.k.

Shuning uchun ham harbiy an'analar шахсни harbiy hayotga tayyorlashda tarbiya vositasi bo'lib qolaveradi. Masalan, ustoz-shogird, hashar, salomlashish, mehmondo'stlik, to'y, keksalarni hurmatlash, kabi yuzlab an'analar o'zbek harbiy



xizmatchilarining milliy axloqiy qadriyatlariga aylanganini ko'rsatish mumkin.

Jamoviy (Harbiy) an'analar ham ijtimoiy an'analar kabi taraqqiyotning doimiy shakldagi o'zgarishlari bilan o'zaro bog'langan. Harbiy hayotdagi boshqa hodisa va voqealar kabi jamoaviy an'analar ham biri paydo bo'ladi, ikkinchisi rivojlanadi, yana boshqasi esa harbiy hayot talablariga javob bermaydi va iste'moldan chiqadi. Bu tabiiy bir qonuniyatdir. Jamoaviy an'analarning ko'pchiligi kishilarning harbiy hayotida sinovlarga dosh berib qo'llanib, mustahkamlanmoqda.

Shu an'analardan xizmat faoliyatda harbiylar faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan jihatlari jamoa an'analari tarkibidan chiqib borilmoqda. Istiqlol sharofati bilan harbiy an'analarni xizmat faoliyatga qo'llash uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi. Mustabid yillarida milliy harbiy an'analarni xizmat faoliyatida qo'llash u yoqda tursin, hatto milliy tarbiya degan iborani ishlatish mumkin emas edi. "An'analarni tarbiyalash, ularni saqlash tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifasidir" degan edi mashhur pedagog **A.S.Makarenko**. Demak, harbiy an'analarni tarbiyalash, ulardan samarali foydalanish xizmat faoliyatida tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifasi bo'lmog'i darkor.

Chindan ham harbiy jamoada harbiy an'analarni avaylab saqlash va boyitish, ularga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib shu xalqning, Vatanning haqiqiy jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Haqiqiy harbiy vatanparvar, oilaparvar harbiy xizmatchi esa o'z navbatida o'z nasl-nasabi ya'ni sarkarda otabobolarining muborak nomlariga dog' tushirmaslikka, ularga sodiq bo'lishga, o'z bilimi, mehnati bilan ular obro'sini mustahkamlashi orqali jamoadoshlarining hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lish zarurligi uqtirilayapti.

Bunday inson eng avvalo o'z oilasiga, xalqi va millatiga, yurtiga va harbiy jamoasiga hamda an'analarga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalanishi zarur. Chunki o'z yurtini sevmaydigan harbiy xizmatchi hech bir millatda, xalqda, davlatda bo'lmasa kerak. Harbiy xizmatchilarni an'analar asosida tarbiyalashda



komandirlarning tarbiya haqidagi ma'lumoti asosiy o'rin tutadi.

Bizningcha, komandirlarning o'z qo'l ostidagi harbiy xizamtchilarni jamoaviy an'analar vositasida tarbiyalashdagi imkoniyatlarini oshirish, takomillashtirish uchun quyidagi ikki yo'nalishda ma'rifiy ishlarni tashkil etish ma'qul.

Birinchidan, komandirlarning jamoaviy an'analar bo'yicha pedagogik ma'lumot-madaniyatini oshirish.

Ikkinchidan, harbiy o'qituvchilar, xizmat bo'yicha tegishli ofitserlar, xodimlar, xizmatchilar va boshqa ofitserlarning pedagogik madaniyatini oshirish.

Bu ma'rifiy ishlarni olib borishni tashkil etishda o'z yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Xususan, hozir davlat ta'lim-tarbiya muassasalarida ishlayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, madaniyat xodimlari, ichki ishlar, hokimiyat vakillari, mahalla faollarining jamoaviy an'analar bo'yicha ma'lumotlari va malakalari hozirgi talab darajasida deb xulosa chiqarish qiyin. Shuning uchun bu muammoni hal etishni keng qamrovli tarbiyaviy ishlardan boshlash maqsadga muvofiq. Yana oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan yosh malakali mutaxassislar o'quv reja va o'quv dasturlari, davlat ta'lim standartlarida ham jamoaviy an'analar, qadriyatlar, ma'naviyatlar bo'yicha mavzular va ularga ajratilgan soatlar hozirgi hayot talabi darajasida emasligini aytish zarur. Ammo istiqlolni keyingi uchinchi, to'rtinchi yillarida jamoa tarbiyasini yaxshilash bo'yicha 1996-yilni "Amir Temur" yili deb e'lon qilingani, HOTM larida harbiylar tarbiyasini o'rganuvchi bo'limning tashkil qilinishi kabi amaliy tadbirlarning bajarilishi bu sohada ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishga asos bo'lmoqda.

Eng muhimi komandirlar harbiy an'analarning yosh ofitserlarni xizmat faoliyatga va ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi ilmiy o'rnini va amaliy ahamiyatini, tajribalarni orttirishdagi, mustahkamlashdagi rolini anglashlari nihoyatda zarur. Masalan, **birinchidan**, mehmondo'stlik, keksalarni hurmatlash an'analari



to'g'risida harbiy xizmatchilarga tushuncha, ko'nikma, , ma'lumot bilan qurollantirmay turib, ularni xizmat faoliyatga va ijtimoiy turmushga amaliy tayyorlash mumkin emasligi hamda bu milliy-harbiy urf-odatlarisiz inson barkamol harbiy xizmatchi bo'lmashligini bilishlari shart. **Ikkinchidan**, komandirlarga harbiy an'analarning tarbiyaviy vazifasini tushuntirishni quyidagi shakl va mazmunda tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Komandirlarga harbiy jamoaviy an'analarning tarixi, maqsadi, vazifasi, har birining o'ziga xos xususiyatlari, ulug' ajdodlarimiz tomonidan qullanilib kelinish sabablari, turmush tarzi, tili, axloqi, mehnati, madaniyati, ma'naviyati hamda udum, urf-odat kabilarning harbiy xizmatchilarni tarbiyalashdagi tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik asoslab ko'rsatishdan iborat.

Komandirlarga an'analarning harbiy xizmatchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi tarbiyaviy qirralari haqida ma'lumot berishda o'zbek millati tarixi, turmush tarzi, harbiy an'nalari, udumi, urf-odati, axloq-odobi, madaniyati ma'naviyati asoslarini harbiy xizmatchilarga o'rgatishda ahamiyatini anglatish hamda ular bilan bog'liq milliy mafkura, milliy ong, milliy g'urur, o'zlikni anglash, millatidan faxrlanish va unga sodiq bo'lish, harbiy vatanparvarlik kabi insoniylik fazilatlarini shakllantirishda harbiy jamoaviy an'analarning tarbiyaviy vazifalarini bajarishga komandiralarning alohida e'tiborini qaratish zarur.

Bu fazilatlarni harbiy an'analar vositasida tarbiyalanganligiga komandirlar ishonch hosil qilishlari darkor. Shundan keyingina harbiy an'analarning tarbiyaviy vazifasi amalda o'z tadbig'ini topadi. Misol uchun jamoada salomlashish va alik olish an'anasini pedagogik tahlil qilaylik. **Birinchidan**, salomlashish eng avvalo insonning insonligini ko'rsatuvchi belgi, uning ongli bir jonzoqligini, boshqa jonzoqlardan farqlanishini, insoniyqligini his qilish, burchni anglash, o'z ruhini o'zi boshqara olish, boshqalarga insonlarcha munosabatda bo'lish, o'zini hurmatlash o'z qadriga va hurmatiga sazovor bo'lish deb izohlasak to'g'ri bo'ladi. **Ikkinchidan**, qonuniy majburiyati. Bunday holat esa



harbiylarning shug‘ullanayotgan faoliyatiga bevositata’sir etmay qolmaydi. Har qanday harbiy xizmatchi o‘zi ro‘para bo‘lgan kishiga salom bermasa yoki salomini olmasa, birinchi navbatda, o‘z xayolida nima uchun bunday holat bo‘lganligi haqida fikr yuritadi, o‘ylaydi va to‘g‘ri xulosaga keladi.

Bu holatning salbiy ta’siri uyqudan so‘ng unutilishi mumkin. Shuning uchun harbiy xizmatchilar jamoada va ijtimoiy hayotda oddiy harbiyiy an‘analarga rioya etishi amaliy ahamiyatga ega deb komandirlarni ishontirish va uni bajarishga undash darkor. Harbiy an‘analarni harbiy xizmatchilarning rivojlanishidagi amaliy vazifasi bundan oldingi ta’limiy va tarbiyaviy vazifalari natijasida hosil bo‘ladi. Buni sodda etib harbiy jamoaviy an‘analarning harbiy xizmatchilarga o‘rgatishdagi hamda tarbiyalashdagi vazifalari ya’ni bilimi, ko‘nikmalari, odatlari ularning umumiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, natijada ular barkamol bo‘lib har tomonlama yetishadi. Bu jarayonni komandirlarga quyidagicha izohlab berish mumkin. Harbiy xizmatchi jamoada harbiy an‘analarga amal qilishda xizmat faoliyatida zarur bo‘ladigan axloq, mehnat, estetik tarbiyalarga doir muomala ko‘nikmalari haqida ilmiy ma’lumotga ega bo‘ladi. Ana shu ma’lumotga tayanib xizmat faoliyati va ijtimoiy hayotda axloq, odob, mehnat ko‘nikmalarini, insoniy xulq-atvorni shakllantirib, barkamollikka erishadi.

Ana shu sifatlar harbiy xizmatchilarni rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu jarayonlarni jamoada komandirlarning bilishlari nihoyatda zarur. Aksincha komandirlar bu jarayonni tushunib yetmasalar boshqaruvi ostidagi harbiy xizmatchilar tarbiyasi samaradorligi shunga yarasha bo‘ladi. Shuning uchun avvalo komandirlarning o‘zlari harbiy an‘analarning rivojlantiruvchi, amaliy vazifalari haqida chuqur pedagogik ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim. Demak, insonning barkamolligida ta’lim-tarbiyaning natijasida uning umumiy rivojlanishi ta’minlanadi. Ana shu pedagogik jarayonni anglash jamoada komandirlarning eng muhim burchi vazifasi hisoblanadi. Harbiyiy an‘analarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: hashar an‘anasi, mehmondo‘stlik an‘anasi, salomlashish va



ko‘rishish an‘anasi, bemorlardan hol-ahvol so‘rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an‘anasi va boshqa an‘analar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jones, T., & Carter, M. (2021). Ethical and moral training in the military. *Military Ethics Journal*, 18(2), 123–139.
2. Brown, L., & Roberts, A. (2020). Psychological resilience and moral development among soldiers. *International Military Psychology*, 14(1), 89–103.
3. O‘zbek Milliy Psixologik Tadqiqotlar Jamiyati (2023). Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy barqarorligini oshirish. *Uzbek Psychology Bulletin*, 15(3), 75–90.
4. Филонов Л.Б. Тренинги делового общения сотрудников органов внутренних дел с различными категориями граждан.-М., 1992.-С.5-6.
5. Жон Честара. Деловой этикет.-М., 1997.-Б.26.
6. Andriadi I.P. —Pedagogik mahorat asoslaril-M.: Akademiya, 2009 yil.
7. Bodalev A.A. —Muloqot psixologiyasil-M .: MPSI, 2002.
8. Volkov B.S., Volkova N.V. —Harbiy xizmatchilardagi muloqot psixologiyasi-Sankt-Peterburg: Peter,-2008.-272p.